



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Bizning suhbat

IQTISODIY BARQARORLIK AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

VILOYAT HOKIMI ERKINJON TURDIMOVNING "ZARAFSHON" VA
"САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" GAZETALARI BOSH MUHARRIRI SAVOLLARIGA JAVOBLARI

– Erkinjon Oqbo'tayevich, 2024-yilning ham dastlabki oyi ortda qolmoqda. Odatda bu paytda o'tgan yil natijalari sarhisob qilingan holda, yangi yil rejalarini amalga oshirishga kirishiladi. Hududlar, tarmoqlarda bu jarayon boshlandi ham. Viloyat rahbari sifatida 2023-yil natijalarini qoniqdingizmi va shundan kelib chiqib, 2024-yil uchun qanday ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi?

– E'tibor bergan bo'lsangiz, 2023-yilning dekabr oyida va yangi yilning dastlabki oyida davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz hayotining muhim sohalari bo'yicha yig'ilishlar, muhokamalar o'tkazilib, yil sarhisob qilindi va 2024-yil uchun vazifalar belgilab berilmoqda. Sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligida suvdan samarali foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, energetika sohasini isloh qilish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishish va boshqa masalalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishlarda ayni shu jihatlar ustuvor bo'ldi. Yaqinda Xavfsizlik kengashining navbatdagi majlisida ham nafaqat mamlakat mudofaa va harbiy sohasi, balki iqtisodiyot, xalq turmush farovonligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Demoqchimanki, o'tgan yil natijalarini atroflicha tahlil qilgan holda, yangi yil rejalarini belgilab olganmiz, oldimizga juda katta maqsadlar qo'yilgan.

Viloyat rahbari sifatida esa o'tgan yil natijalari yil boshida qilgan niyat va amaliy ishlarimizga yarasha bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi. Qaysi soha yoki tarmoq mas'ullari, tuman va shaharlar hokimlari zimmasidagi mas'uliyatni his qilib ishlagan, dasturlar ijrosiga jiddiy e'tibor qaratgan bo'lsa, o'sha sohada yoki hududda o'sish-rivojlanish kuzatildi, xalq turmush darajasi oshdi. Aslida ham barcha harakat va maqsadlarimiz viloyatimiz rivoji, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan.

Fikrlarimni ayrim raqamlar bilan asoslasam. O'tgan yilning dastlabki natijalari viloyatimiz yalpi hududiy mahsuloti **74,2 trillion so'mdan** oshishi yoki **105,2 foizga** bajarilishini ko'rsatmoqda. Bunda qishloq xo'jaligining ulushi **49,3 trillion so'm**, sanoat mahsulotlari hajmi **33,9 trillion so'm** bo'ldi.

Umumiy qiymati 2 milliard 34 million dollar bo'lgan 1876 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilib, 28 mingta yangi ish o'rnini yaratildi. Eksport hajmi 600 million dollar-ga yetdi.

Mahalliy budjet daromadlari 4 trillion 451 milliard so'mga bajarilib, qo'shimcha 301,5 milliard so'm mablag' tushurishga erishildi. Ushbu mablag' hisobidan ta'lim va tibbiyot sohalarini rivojlantirish, hududlarni obod qilishda samarali foydalanildi.

– Viloyatimiz iqtisodiyotida keyingi yillarda sanoatning ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi. Sohada ishlab chiqarishni ko'paytirish va sanoatlashirish darajasini oshirish asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi. Lekin keyingi yillarda suv ta'minoti dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuning uchun bu yil suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida **2,5 ming kilometrdan ortiq** kanal, ariq-zovurlarni betonlashirish rejalashtirilgan. Buning natijasida **155 million kub metr suv iqtisod qilinadi**.

Shuningdek, **54,8 ming gektar** maydonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy

– Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i Sh.Bayxovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-son qarori ijrosi yuzasidan hisoboti to'g'risida;

– viloyatda 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkalarini



Bandlik dasturiga ko'ra, **491 mingdan ortiq** aholi o'z ish joyiga ega bo'ldi. Yil davomida **7300 dan ortiq** kichik biznes subyektlari tashkil etilib, ularning umumiy soni **55 mingtaga** yetdi.

O'tgan yil natijalari tahlili va oldimizda turgan vazifalardan kelib chiqib, bu yil yalpi hududiy mahsulot hajmini **87,8 trillion so'mga** yetkazishni, **3 milliard 10 million dollarlik 2048 ta** investitsiya loyihasini ishga tushirishni maqsad qilganmiz. **855,6 million dollarlik** to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtiriladi. Eksport hajmi **624,2 million dollarga** yetkaziladi.

Bu yil viloyatda sanoatni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi va uning filiallari, tuman va shaharlardagi kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat zonalarida istiqbolli loyihalarni joylashtirgan holda eksport bo'i va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvor ahamiyat beriladi. Shuningdek, IT sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalar hayotga tatbiq etiladi. Bu – bugungi taraqqiyot, zamon talabi. Ushbu sohalarida intellekt, yoshlarimizning aql-zakovati bilan yuqori natijalarga erishish, yangi ish o'rinlari yaratish mumkin.

Viloyatimiz iqtisodiyotida keyingi yillarda sanoatning ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi. Sohada ishlab chiqarishni ko'paytirish va sanoatlashirish darajasini oshirish asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi. Lekin keyingi yillarda suv ta'minoti dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuning uchun bu yil suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida **2,5 ming kilometrdan ortiq** kanal, ariq-zovurlarni betonlashirish rejalashtirilgan. Buning natijasida **155 million kub metr suv iqtisod qilinadi**.

Shuningdek, **54,8 ming gektar** maydonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy

qilish rejalashtirilgan.

Umuman, o'tgan hafta davlatimiz rahbari tomonidan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash hamda investitsiya, eksport va sanoat sohalari-dagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishlarida joriy yilda oldimizda turgan vazifalar aniq belgilab berildi. Shu asosda, viloyatni har tomonlama rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqaymiz.

Katta, salohiyatli viloyatga aylandik. Aholimiz soni **4 milliondan oshdi**. Shuncha aholining oziq-ovqat ta'minoti, uy-joy bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilma bilan bog'liq masalalar. Har bir yo'nalish bo'yicha aniq dastur va rejalarimiz bor va bu orqali viloyatimiz aholisiga munosib turmush sharoiti yaratishga intilyapmiz.

– O'tgan yil dekabr oyida hokimlar va bir guruh tadbirkorlar bilan Xitoyga amalga oshirgan ishchi tashrifingiz viloyatiga qanchalik ta'sir qildi?

– Nafaqat Xitoy, balki boshqa davlatlarga tashriflarimiz ham o'rganish, tajriba almashish va viloyatimizga investitsiya olib kelish uchun qulay imkoniyat bo'lmoqda va bu albatta, rejalarimizga joiyib ta'sir ko'rsatmoqda. Prezidentimizning xorijiy davlatlar bilan hamkorlik siyosatida mintaqalar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shuning uchun har bir tashrif doirasida xorijda va yurtimizda biznes forumlar, mintaqalar rahbarlarining uchrashuv va mulohazalarini o'tkazish an'anaga aylandi. Jumladan, Xitoy bilan ham ana shunday hamkorlik yo'lga qo'yilgani biz uchun manfaatli bo'lmoqda.

Xalqimizda "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil", degan naql bor. Men uni zamonaviy shaklda "yana birni ko'rib zikr qil", deb davom ettirishni istardim. Chunki tajriba, deb istaymizmi-yo'qmi, amaliyotdan keladi. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlar tajribasi biz uchun doimo ibrat. Shuning uchun davlatimiz rahbarining o'zi qaysi yurtga bormasin ilg'or xorij tajribalarini sinchiklab o'rganmoqda va uni bizlarga puxta o'rganishni, chet ellik, bozori bor sarmoyadorlarni mamlakatimizga jalb etish topshirig'ini bermoqda.

Bu tashrif bez ketmadi, samarali bo'ldi. Umumiy qiymati **5,1 milliard dollarlik 267 ta** loyiha bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi. Ushbu loyihalarning aksariyati 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Har bir kelishuv bo'yicha shahar va tuman hokimlari mas'ulligida ishlar tashkil etilib, loyihalarni amalga oshirish yuzasidan xitoylik hamkorlar bilan aloqalar o'rnatilgan.

(Davomi 2-sahifada) >>>



MAHALLAga HAMMA SAFARBAR

Joriy yilning 18-yanvar kuni Prezidentimizning topshirig'i bilan mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash, aholi muammolarini o'rganish va hal etish maqsadida hududlar bo'yicha respublika ishchi guruhlarini shakllantirilgan edi. Kecha Samarqand shahridagi Yoshlar markazida viloyatimizga birlashtirilgan ishchi guruhining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, ishchi guruh rahbari Qahramon Quronboev olib borgan yig'ilishda dastlab tashkiliy masala ko'rildi. Sher-ali Yo'ldoshev O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Shundan so'ng ishchi guruhning asosiy vazifalari, mahallalarni, oilalarni o'rganishda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muhim jihatlarni muhokama qilindi. Viloyatda 4 ta hududiy shtab tuzilib, ular-ga mas'ul idora va tashkilotlar rahbarlari hamda tuman hokimlari birlashtirildi.

– Har bir mahallaga kiramiz, faollar-ning o'tgan vaqtidagi faoliyati, aholining kayfiyatini o'rganamiz, - dedi Q. Quron-boev. – Ijtimoiy himoyaga muhtojlarning muammosi birgina moddiy yordam bilan hal bo'lib qolmaydi. Aksincha, ular-da boqimandalik kayfiyati paydo bo'lishi mumkin. Shu bois kinga qanday yordam kerakligini aniq bilishimiz va shu asosda viloyatning manzilli "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishimiz kerak.

Yig'ilishda yoshlarni kasbga yo'naltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi ham ko'rib chiqildi. Xususan, viloyat-da maktab bitiruvchilariga o'qish vaqtida egallagan kasbi hamda o'zlashtirgan xorijiy tillari bo'yicha diplom berishni tashkil etib, shu yo'nalishda Samarqand tajribasini yo'lga qo'yish taklifi berildi.

– Ko'p yillar mahalla tizimida ishla-



ganligim bois unda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijtimoiy ahamiyatini yaxshi anglayman, - deydi Kattaqo'rg'on shahri hokimi Gavhar Alimova. – Mahallada yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoliyati faoliyatini tashkil etish uzoq kutilgan jarayon edi. Mana, endi bu tuzilma "yettilik"ka, kuchli jamoaga aylandi. Ularni qo'llab-quvvatlash, hududlardagi muammolarga hamjihatlikda yechim topish bizning vazifamiz.

Ishchi guruhi mahallalarda "mahalla yettilligi" faoliyatini tashkil etish, aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, sport tadbirlarini o'tkazish, "Xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etish singari muhim yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlarni tahliliy o'rganib, muammolarni bartaraf etishda tashkiliy-uslubiy ko'mak berish belgilangan.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Shahodat ISOXONOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi:

– Jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, hamma narsa o'zgaradi, yangilanadi, qarashlar boshqacha bo'ladi.

Bugungi kun manfaatlashgan davr. Manfaatni foyda deb qaralsa, uning hech qanday zararli jihati yo'q.



Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq to'qson beshinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq to'qson beshinchi sessiyasi **2024-yil 26-yanvar kuni** chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini

ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-son qarori ijrosi bo'yicha viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i F.Boltayev hamda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i S.Zayniyevlarning hisobotlari;

– viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i X.Umarovning 2023-yil IV chorak yakuni bo'yicha viloyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti;

– viloyatda 2023-2024-yillarda sement-beton yo'llarni qurish ishlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida;

– 2023-yil IV chorak yakunlari bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarini tasdiqlash to'g'risida;

– xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil I yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida;

– viloyatda 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkalarini

tasdiqlash to'g'risida;

– viloyatning Samarqand shahri, Samarqand va Oqdaryo tumanlarining ma'muriy-hududiy chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish haqida;

– viloyatda 2023-2024-yillarda sement-beton yo'llarni qurish ishlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida;

– 2023-yil IV chorak yakunlari bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarini tasdiqlash to'g'risida;

– xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil I yarim yillikka mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida;

Viloyat hokimi E.TURDIMOV

2024-yil 19-yanvar

IQTISODIY BARQARORLIK

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

VILOYAT HOKIMI ERKINJON TURDIMOVNING "ZARAFSHON" VA "САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" GAZETALARI BOSH MUHARRIRI SAVOLLARIGA JAVOBLARI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Tashrif davomida meni qiziqtirgan e'tiborli jihat Xitoy davlatining yoshlarni zamonaviy texnologiyalarga o'rgatishi bo'ldi. Yoshlarning ishtiroq bilan ilm, texnologiya o'rganayotganini ko'rdim. Lekin ularga dunyoning turli davlatlaridan kelgan yetuk mutaxassislar dars berayapti. Yoshlarga imkoniyatlar ham yaratilgan.

Xabaringiz bor, biz ham Nurobodda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda shunday markaz yaratganmiz. Ya'qinda bu markaz faoliyati davlatimiz rahbari tomonidan ham e'tirof etildi va butun respublikada ushbu tajribani joriy etish belgilandi. Endi Samarqand shahri markazida, 16 qavatli ma'muriy binoning besh qavatini ana shunday iqtidorli yoshlarga bermoqchimiz.

Bugun dunyodagi iqtisodiyoti jadal rivojlantirayotgan davlatlar orasida yetakchilik qilayotgan Xitoyning aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikdan chiqarish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini taraqqiy ettirish bo'yicha tajribasi bizga juda qo'l kelmoqda.

– Umuman, o'zimizdagi va Xitoy mintaqalari boshqaruvida qanday o'xshashlik va farqli jihatlar, o'rganishimiz kerak bo'lgan tajribalar bor? Ularni o'zimizda qo'llash mumkinmi?

Xitoy davlati va mintaqalari kommunistik partiya boshqaruvi tizimiga asoslangan. Ya'ni, bizning boshqaruv tizimimizdan tubdan farq qiladi. Lekin bir necha bor safarlarim davomida shunga amin bo'ldimki, bu xalq, ayniqsa, mas'ul shaxslar qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar avvalo, vaqtdan unumli foydalanadi, bir daqiqa vaqtini ham zoye ketkazmaydi, zimmasiga yuklangan vazifani sidqidildan bajarishga intiladi. Tartib-intizom juda kuchli va buning natijasida barcha sohalarda ish unumdorligi o'ta yuqori.



Korxonalarda rahbardan tortib ishchi va xizmatchilargacha o'sha korxonada ramzi tushirilgan maxsus kiyimlarda ishlashadi, boshqaruv tizimi, rahbar va xodim munosabatlari yuksak madaniyat, qat'iy tartib-qoidaga asoslangan.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish yuqori darajada – yo'l harakati nazorati, qo'riqlash va xavfsizlik xizmati videokamera bilan integratsiya qilingan. Inson omilisiz avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Barcha to'lovlar, buyurtmalar, subyektlar faoliyati to'g'risida ma'lumot olish va aloqalar yagona elektron ilova We Chat orqali bajariladi.

Xalqning o'ziga xos an'analari, milliy qadriyatlar e'zozlanadi. Oilaviy muhitda ham, mehnat jamoalarida ham bu qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega.

Albatta, bizning boshqaruv tizimimiz, rahbar va xodim munosabatlarda o'ziga xos qadriyatlar mavjud. Lekin tartib-intizom, maqsadga erishish yo'lida tinimsiz izlanish va ishchanlik borasida xitoyliklardan ko'p narsa o'rgansak bo'ladi.

– O'tgan yil davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro tadbirlar, oliy darajadagi uchrashuvlarda ishtirok etish, shuningdek, viloyatdagi ishlohtlar jarayonlari bilan tanishish uchun bir necha marta viloyatimizga tashrif buyurdi. Albatta, har bir tashrifda ma'lum vazifalar, topshiriqlar beriladi. Ularning ijrosi qanday kechdi?

– Haqiqatdan ham o'tgan yil davlatimiz rahbari bir necha bor viloyatimizga kelib, garchi tashriflar turli maqsadlarda bo'lsa-da, Samarqandni yanada rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdilar. Bu topshiriqlarning har biri bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirilmogda.

Xususan, 2023-yil 24-avgust kuni tashrif va shu kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan 100 ta topshiriq berilgandi. Bu topshiriqlarning 81 tasi respublika vazirlik va idoralar, 19 tasi bevosita viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari hamda boshqarma va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bugungi kungacha ijro muddati kelgan 80 ta topshiriqning 71 tasi bajarilgan, 9 tasi amalga oshirilmoqda.



Jumladan, Oqdaryo tumanidagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabiga tashrif davomida maktablarda o'quvchilarga sifatli ta'lim berish bilan bir qatorda, ikkita xorijiy til va kamida bitta kasb-hunar o'rgatishni yo'lga qo'yish vazifasi berilgandi. Biz har bir tuman va shaharda o'ntadan maktabda ushbu tizimni yo'lga qo'yish tashabbusini bildirgandik va hozirda bu vazifa bajarilmogda. Barcha tuman va shaharlarda, hozircha, kamida bittadan maktabda 10-sinfidan boshlab o'quvchilar kasbga o'rgatilmogda.

Viloyatdagi 129 ta maktabga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan elektron interaktiv doska yetkazib berildi. Bundan tashqari, Samarqand tumanida "Nurli kelajak ishonch servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan "AVTO MALL SAMARQAND" savdo majmuasi foydalanishga topshirildi. Sanoat va servis majmuasi qurilishi ham yakuniga yetmoqda.

Davlatimiz rahbari topshirig'i asosida Samarqand shahridagi "Aziya metall prof" mas'uliyati cheklangan jamiyatida esa yana ikkita yirik loyiha ishga tushirilmogda.

Tashrif davomida Kattaqo'rg'on tumanida quvvati 250 megavatt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish vazifasi qo'yilgandi. Mazkur topshiriq ijrosiga kirishilib, 2024-yil arafasida mazkur stansiya tarmoqqa ulandi.

Prezidentimiz yangidan bunyod etilayotgan Imom Buxoriy majmuasining qurilish-pardozlash ishlari yuzasidan ham zarur ko'rsatma va topshiriqlar bergan edi. Ayni paytda quruvchilar tomonidan bu vazifalar ham bajarilmogda.

– 2025-yilda YUNESKO Bosh assambleyasining 43-sessiyasi ilk bor Parij shahridan tashqarida, aynan Samarqandda o'tkazilishi belgilandi. Bu mamlakatimiz diplomatiyasining o'ziga xos muvaffaqiyati deb baholanmogda. Mazkur anjumaning Samarqandda o'tkazilishi O'zbekiston uchun faxr va yuksak mas'uliyatdir. Tadbirga respublika rahbariyati boshchiligidagi hozirlik ko'risla-da, forumga Samarqand mezbonlik qiladi. Shu jihatdan biz uchun bu nufuzli forumning mas'uliyati va ahamiyati nimada?

– BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKOga hozirgi kunda 193 ta davlat a'zo. Uning bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40 yildan buyon faqat Parijda o'tkaziladi. 2025-yilda esa bu konferensiya sessiyasini birinchi marta boshqa shaharda, ya'ni Samarqandda o'tkazish belgilandi. Albatta, bu global miqyosdagi tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan sivilizatsion salohiyatini yana bir bor namoyish etishga xizmat qiladi.

Tashkilotning bunday qarorga kelishi keyingi yillarda Samarqandning yangi O'zbekistonning turizm darvozasiga aylanib borayotgani, ko'plab nufuzli anjumanlarga mezbonlik qilayotgani va xalqaro tadbirlarning yuksak saviyada o'tayotgani bilan bog'liq, albatta.

Jumladan, o'tgan yil Samarqandda 40 dan ortiq



xalqaro forum va sammitlar, tadbirlar o'tkazildi, bir nechta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi. 130 dan ortiq davlat va o'nlab xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida Butunjahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi Samarqandda o'tkazildi.

Bu tadbirlarning har biri biz uchun maktab bo'ldi. Xalqaro anjumanlarni tashkil etish, mehmonlar va turistlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish hamda shu orqali sayyohlikni rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish zarurligini angladik.

YUNESKO BMTning eng ko'p mamlakatlarni o'z atrofida to'plagan yirik xalqaro tashkilotlaridan biri hisoblanadi. BMTga a'zo davlatlarning deyarli barchasi mazkur tuzilmaning ham ishtirokchisi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tashkilotning Samarqanddagi sessiyasida bu davlatlardan vakillar, fan, ta'lim, madaniyat, turizm sohalari mas'ullari ishtirok etadi. Biz ularga nafaqat tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni, balki milliy madaniyatimiz, o'ziga xos an'ana va qadriyatlarimiz, yuksak turmush madaniyatimizni ham ko'rsatib bera olsak yurtimizda turizm rivojiga munosib hissa qo'shgan bo'lamiz.

Biz ayni paytda tadbirga tayyorgarlikni boshladik. Albatta, bu jarayonda davlat tomonidan bajariladigan aniq chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan barcha har bir samarqandlik bunga hozirlik ko'rish, o'zi mas'ul, deb bilishi lozim.

Shu o'rinda viloyat ahliga ham dilimda aytadigan gapim bor. Sayyohlarning oqimi bizga daromad keltiradi, ularga xizmat ko'rsatish hajmi kengayadi, ko'pchilik ishli bo'ladi. Demak, biz bu imkoniyatni qo'ldan bermasligimiz kerak. Yangi marshrutlar ochish, xizmat saviyasini oshirishga hissa qo'shaylik. Uyimiz, hovlimiz, ko'chamizni ozoda tutishga intilaylik. Sayyohlik rivojlangan davlatlardagi tajribalarni o'zimizga olib kiraylik.

– Samarqand shahrida keyingi yillarda infratuzilma ancha takomillashdi, lekin bu borada hali tumanlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Bu yil qaysi hududlarda bu masalaga ko'proq e'tibor qaratiladi?

– Infratuzilma deganda biz bir kishi yoki bir ishbi-larmon emas, balki barchaga yaratiladigan sharoitlarni tushunishimiz kerak. Hech qaysi davlatda infratuzilmani davlat yaratib bermaydi, odamlar o'zlar kelishib, har kim o'ziga tegishli ishni qiladi. Davlat tomonidan bizda yo'l, elektr liniyasi o'tkazib beriladi.

– Masalaning mohiyatini sal kengroq sharhlab bersangiz...

– Masalan, yo'l yoqasida birorta idora joylashgan. Amaldagi qonunlarda shu idora ma'muriyati bino atrofini ozoda tutishi, yo'lakni buzmasligi, idora oldidan o'tuvchi ariqdan suv oqib turishini ta'minlashi ko'rsatilgan. Lekin kim ana shu talabni o'rta-ga tashlayapti. Aholining ham o'z hovlisini asrashi yuzasidan mas'uliyati aniq, lekin buni ham hech kim so'ramayapti.

Bir misolni aytay. Ya'qinda biz bilan Xitoyga borgan rahbarlardan biri fermer hududidagi saranjomlik va ariqlar tozaligini ko'rib, hudud rahbarlariga "mana shu tartibni qanday amalga oshiryapsizlar?" deb so'rabdi. Ular esa "nima uchun uni biz uyushtirishimiz kerak, fermer nizomida ariqni tozalash, hududni ozoda saqlash majburiyati yozilgan, agar u buni bajarmasa, yeri olib qo'yiladi yoki katta jarima to'laydi" debdi. Biz ham odamlarda ana shu nuqtai nazarni shakllantirishimiz kerak.

Yoki "Tashabbusli budjet" tizimini olaylik. Joylardagi eng dolzarb, muhim masalalarni o'sha hududning aholisi tashabbus bilan olib chiqib, buning uchun mablag' ajratilishiga erishyaptiku. Mazkur loyihada muntazam qatnashib, yo'l, elektr energiyasi bilan bog'liq muammolarini hal qilgan, ta'lim va tibbiyot muassasalarini jehozlagan mahallalarni ko'rdim.

Odamlarning o'zi hayotini o'zgartirish, o'z turmushi farovonligini ta'minlash uchun harakat qilayapti, ya'ni ular tashabbus ko'rsatyapti, mablag' davlat tomonidan ajratilyapti. Bu hudud aholisini hamjihat qilayapti, obodlik uchun birgalikda harakat qilishga undayapti. Muhimi, aholi o'zlar harakat qilib, tashabbus ko'rsatib erishgan obodlikni asrab-avaylashni ham, qadrlashni ham o'rganyapti.

Yana bir jihatga e'tibor qaratmoqchiman. Davlatimiz rahbari topshirig'i bilan tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holati og'ir hududlar "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonini asosida obodonlashtirilib, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratilmogda. O'tgan yil Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Past Darg'om va Narpaty tumanlaridagi bittadan mahalla obod qilindi. Uch oy ichida bu mahallalardagi yo'l, kommunal soha bilan bog'liq muammolar hal etildi, ta'lim va tibbiyot muassasalari ta'mirlandi, aholi xonadonlarigacha obod etildi. Bu ishlarda aholining o'zi ham faol qatnashdi va yangi-cha sharoitda turmush kechirishga o'rgandi.

Joriy yilda ushbu tizim sektorbay yo'lga qo'yiladi va har chorakda bittadan mahalla shu tartib bo'yicha obod qilinadi. Ayni paytda viloyatning

to'rtta sektoridagi to'rt hududda – Kattaqo'rg'on tumanidagi Melixo'ja, Ishtixonidagi Qiyot, Past Darg'om tumanidagi Go'zalkent va Toyloq tumanidagi Tepaqishloq mahallasida amaliy ishlar boshlandi. Har bir mahallada sektor va mutasaddi tashkilotlar vakillari xatlov o'tkazib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni belgilab oldi. Shu asosda yo'l xaritalari tasdiqlanib, yumushlarga kirishildi.

Bundan tashqari, bu yilgi investitsiya dasturiga ham har bir tumanidan eng muhim, aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan loyihalar kiritilgan va bu olis qishloqlarda ham zamon talablariga mos infratuzilma yaratishga xizmat qiladi.

Xususan, 106 ta maktab, 27 ta maktabgacha ta'lim, 4 ta oliy ta'lim, 10 ta sog'liqni saqlash obyektlari quriladi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 9000 xonadonli 175 ta ko'p qavatli uy-joy bunyod etiladi. Barcha dasturlar doirasida 2822 kilometr yo'l va 17 ta ko'priklar ta'mirlanadi, 122 dona suv inshooti qurilib, 688 kilometr tarmoq tortiladi. Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 8 ta podstantsiya va 318 ta transformator va 993 kilometr elektr uzatish tarmoqlari yangilanadi.

– 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Yil dasturi qabul qilinib, bu borada aniq chora-tadbirlar belgilandi. Viloyat rahbari sifatida Samarqandda yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalarida qaysi yo'nalishlarga ustuvorlik berish zarur deb hisoblaysiz?

– Xabaringiz bor, o'tgan yil dekabr oyida viloyatimizdagi barcha hokimlar, oliy o'quv yurtlari rektorlari, bir qator boshqarmalar rahbarlari yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. O'zim ham yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, ularni eshitdim. Juda ko'p takliflar, tashabbuslar bildirildi. Yoshlarning o'z taqdiriga, yurt kelajagiga befarq emasligidan xursand bo'ldim. Aksariyat yigit-qizlar tadbirkorlik qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganish va shu sohada ishlash niyatida ekanligini bildirdi. Boshqa rahbarlardan ham yoshlar bilan uchrashuvlarda shu kabi takliflar ko'p bildirilganini eshitdim. Shuning uchun, bu yil viloyatimizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va IT sohasiga alohida e'tibor qaratishga qaror qildik.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlamogchi bo'layotgan yoshlarni eng avvalo biznes yuritishga o'qitish tizimini joriy qilmogchimiz. Shuningdek, viloyat hokimligi huzuridagi Tadbirkorlar kengashi tomonidan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yamiz. Yoshlarni yirik tadbirkorlarga birtitiraymiz.



Bugun viloyatimizda oliy o'quv yurtlari va ularda tahsil olayotgan talabalar soni ancha oshdi. Lekin ular bilan ishlashni faqat oliy o'quv yurtlarining o'ziga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Talabalarni ijtimoiy muhofaza qilish, bo'sh vaqtini mazmunli va foydali mashg'ulotlar bilan o'tkazishini ta'minlash, qobiliyati va iqtidoriga qarab, to'g'ri yo'naltirishga hokimlik va boshqa tashkilotlar ham alohida e'tibor qaratishi zarur. Bu borada ham aniq chora-tadbirlar belgilab olganmiz. Yoshlar bilan muloqotimizda 2024-yil avvalida barcha oliy o'quv yurtlarida talabalar bilan uchrashuvlar o'tkazishni rejalashtirgandik. O'ylaymanki, bunday muloqotlarimiz yana ko'plab yangi tashabbuslarga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, ishsiz va xorijda mehnat migranti sifatida ishlayotgan yoshlar, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlar, og'ir toifadagi yigit-qizlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarur.

Umuman, bu yil yoshlar masalasiga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi.

– Siz shu zamin an'analarda kamol topgansiz, qolaversa, ishlash jarayonida aholi kayfiyati va imkoniyatlarini bilib olishga yetarli vaqt bo'ldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Samarqandning, samarqandliklarning er-tasini, kelajagini qanday tasavvur etasiz?

– Samarqand o'z ilmiy salohiyati va ma'rifati bilan dunyoda ro'y bergan ikki Uyg'onish davrida ham yalovbardorlardan bo'lgan. Mening orzumi ham, tasavvurim ham mehribon tushgan bu yurtni, bu elni uchinchi bor ham ana shunday sharafga ega bo'lishni kutishdir. Zero, fidoyi Prezidentimiz rahbarligida viloyatda yorqin taraqqiyotga qarab borayotgan shiddatli qadamlar, shu o'lka xalqining bunyodkorlik xislati bu kunlarga yetishimizga kafolatdir.

Faoliyatimizda mol-mulk merosi bilan bog'liq murojaatlar juda ko'p bo'ladi. Urf-odatlariga ko'ra, mol-mulkimizni faqat o'g'illarimizga qoldirishga harakat qilamiz. Qiz bironing xasmi, o'g'illar orqamizda qoladi, degan yozilmagan qonunlariga bo'ysunamiz.

Ko'pincha ota-onalar o'z mol-mulkini farzandlariga hadya qilishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishadi. Natijada ulardan so'ng bolalar sarson bo'lishadi. Bir necha yillar ilgari notarial ish jarayonimizda bir fuqaro xotini va farzandlari bilan kelib, uchta uyi va ikkita mashinasini faqat o'g'liga hadya qilishini aytib, murojaat qilgan edi. Ulardan nechta farzandi borligini so'radim. Ota ikki qizi va bir o'g'li borligini aytdi. O'g'lingizdan boshqa farzandlaringizga ham biron narsa hadya qilmaysizmi, deganimda qizlarim turmushga chiqqan, qudalarimni oldida noqulay bo'ladi, kuyovim ham noto'g'ri fikrga borishi mumkin, deya



Andisha keltirgan achinarli holat

andisha qilib, barcha mol-mulkini o'g'liga hadya qilgandi.

Oradan ko'p yillar o'tib, ota-ona vafot etgach, qizi turmush o'rtog'i bilan ajrashib, ikki farzandi bilan ota uyi-ga qaytib akasining oilasi bilan birga yashabdi. Ko'p o'tmay biznes qilish maqsadida akasi o'zining nomidagi uylarni sotib yuboribdi.

Voqeani eshitib afsuslandim. Ammo noiloj, ota-ona tiriklik vaqtida birgalikda qaror qabul qilib ketishgan edi. O'shanda ular meros qoldirayotganida shoshmasdan qaror qilganlarida shunga o'xshagan achinarli holat yuzaga kelmagan bo'larmidi?

Kamoliddin JO'RAYEV,
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

Chigirtkaga qarshi bugundan kurash boshlandi

O'simliklar karantini va himoyasi agentligining tut parvonasi va chigirtkalar-ga qarshi kurashish xizmati viloyat bo'limi tomonidan 2024-yilda zararli chigirtkalarining tarqalishi va tuxum qo'ygan maydonlarini aniqlash hamda kelgusi yil ekinlarini xavfli chigirtkalar hujumidan himoyalash maqsadida kuzgi kuzatuv tadbirlari olib borildi.

Nazorat tadbirlari natijasiga ko'ra, viloyatimizda jami 91125 gektar maydon kuza-tilib, 7410 gektarda zararli chigirtkalarining tuxum qo'ygan maydoni aniqlandi.

Baxtigul G'ANIYEVA,
viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi axborot xizmati rahbari.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son va 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-son qaroriga muvofiq davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan savdo do'koni	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Samarqand shahri, Beruniy ko'chasi, 69-uy	0,015	149,22	1 687 311 000,0	20.02.2024 y.	20.02.2024 y.
2	Bo'sh turgan xizmat ko'rsatish binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Samarqand shahri, "Xo'ja Yusuf" MFY, Bo'stonsaroy ko'chasi, 34-"A" uy	0,0373	373,2	4 252 826 000,0	20.02.2024 y.	20.02.2024 y.
3	Bo'sh turgan oshxona binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Payariq tumani, "Mustaqillik" MFY, Yangi Hayot ko'chasi, 1-"A" uy	0,0035	35,38	66 166 800,0	20.02.2024 y.	20.02.2024 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shax-

siy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektning tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar mulk haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchilar tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksionni tanlashadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchi-

laridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonno-ma avtomatik tarzda shakllantirilgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat

pullari ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil:

Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

+99866-233-96-64,
+99899-447-17-70.

Faks: +99866-233-73-54.

Facebookdagi rasmiy sahifa:

Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmog'idagi veb-sayt:

samarqand@davaktiv.uz

QUTLOV!

Bugun olijanob inson, bilimdon ustoz, tibbiyot fanlari doktori, Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining akademigi Saidjalol Bahromov 86 yoshga to'ldi.

U 1938-yilda tavallud topdi. 1962-yilda Toshkent tibbiyot institutini tamomlab, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani shifoxonasida ishlagan. Keyinchalik gematologiya va qon qo'yish ilmiy tekshirish institutida aspirantlik qilgan. 14 yil davomida gematologiya klinikasida ilmiy rahbar, direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan. 1985-yilda O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri bo'ldi.

S. Bahromov 300 dan ortiq ilmiy maqola, 10 ta monografiya va 10 xitiroga mualliflik qilgan. Shogirdlarining 5 nafari doktorlik, 15 nafar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

Bugun o'zining tabarruk yoshini qarshi olayotgan domlaga uzoq umr, baxt-saodat, kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyatiga ulkan zafarlar tilaymiz!

Zayniddin NORMAN.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Abdushukurov Abdumalik Xaqqulovichga (2022-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Ergashev Kurbonboy Ortisqovichga (2023-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek

Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Nematov Raimkul Yuldashovichga (2016-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida

marhum Abdullayev Abduxaliga (2022-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-"J" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Isaqov Iso Djaliyovichga (2018-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

TANLOVDA QATNASHING!

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali quyidagi kafedralar bo'yicha bo'sh lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

"KOMPUTER INJINIRING" FAKULTETI BO'YICHA:

"Dasturiy injiniring" kafedrasiga:

- professor - 1 o'rin.

"Axborot texnologiyalari" kafedrasiga:

- katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI" FAKULTETI BO'YICHA:

"Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin;

- katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasiga:

- dotsent - 1 o'rin;

- assistent - 1 o'rin.

"Axborot xavfsizligi" kafedrasiga:

- assistent - 1 o'rin.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;

- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy

varaqa;

- oliy ma'lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalari;

- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;

- ilmiy va uslubiy ishlarining ro'yxati.

Talabgorlar quyidagi manzilga murojaat etishlari lozim:

Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi, 2-uy. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon:

+99866-232-29-29.

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi "SHODIYONA YO'L TRANS SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 301802836) burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Eshpulatov Mexroj Islommu-rodovichning (pasport AA 7004607) haydovchilik guvohnomasi Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99895-454-37-77.

Mulohaza uchun mavzu

Ilm insonni elga tanitadi, obro'sini oshiradi, el ichida aziz qiladi. Ilmga intilgan xalq hech narsaga zoriqmaydi, hech kimga qaram bo'lmaydi. Hadislarida "Beshikdan qabrgacha ilm izla", deb bejiz aytilmagan. Bir vaqtlar Sharq madaniyati, ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan xalqimiz bugun negadir ilm olish borasida oqsayapti. Shu sababli rivojlangan davlatlar hayotiga havas qilyapmiz, ulardagi tekis, ravon yo'llardan tortib, barcha sohalarida erishilgan yutuqlariga hayrat ko'zi bilan qarayapmiz. Nega bu narsalar bizda yo'q, deb o'zimizga savol beryapmiz. Ammo ular taraqqiyotga ilm bilan erishganini tushunib yetmayapmiz. Hatto yarim aholisi ko'chada yashaydigan Hindistonda ham ayrim sohalar bizdan ko'ra rivojlanib ketdi. Sababi, ular xorijda ishlab topgan pulini farzandining ta'limiga ishlata-di. Bizdagi kabi qo'sha-qo'sha uylar, dang'illama to'ylarga sarflamaydi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan va ijodiy qobiliyatga ega yoshlarga ehtiyoj katta. Prezidentimizning 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni ham aynan shu maqsadga qaratilgan. Qolaversa, O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida ham aynan shunday iqtidorli mutaxassislar juda zarur.

Shu bois ixtisoslashtirilgan maktablarda o'rgatiladigan fanlarning o'zni nihoyatda muhim. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti qoshidagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabimizda aniq fanlar (matematika, fizika) va tabiiy fanlar (kimyo, biologiya) yo'nalishlari mavjud bo'lib, bu yil birinchi "qaldirg'ochlarni uchirdik". Maktab o'quvchilari ushbu o'quv yilida olimpiadaning Samarqand shahri bosqichida 15 ta faxrli o'rinni oldi, ulardan bir nafari fizika fanidan respublika bosqichiga tayyorlanayapti. Maktabimizdagi o'qituvchilarning 54 foizi oliy va birinchi toifali ustozlar. O'qituvchilarning o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishga harakat qilishadi. Iqtidorli o'quvchi-yoshlarga hayotiy, amaliy masalalarni mustaqil yechishda albatta, qaysidir fandan olingan

Inter-netga sarflaydigan vaqtimizning yarmini kitob o'qishga ajratsak ham bema'lol bir oyda to'rt-beshta kitob o'qib qo'yishimiz mumkin. Odam qanchalik o'z ustida ishlaysa, doim o'qib-o'rgan-sa, avvalo, vaqtning qadriga yetadi. So'ngra u bema'ni seriallarni ko'rmaydi, yengil-yelpi qo'shiqlarni eshitmaydi. Ana shundaygina inson umrini foydali ishlar qilishga bag'ishlaydi, hayotidan mamnun bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda yaqinda Yaponiyada bo'lgan zilzila oqibatida 100 nafardan ziyod odam vafot etgani, xuddi shun-

MAKTAB VA OILA

HAMKORLIGISIZ YUKSALISH BO'LMAYDI

bilimlarning ahamiyati katta. Bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil egallashga o'rgatib borish bilan o'quvchilarda muammolar sabablarini tahlil qilish, aniqlash va o'z munosabatini bildirish ko'nikmalari shakllanadi.

Bugun turli bilim va ko'nikmalarni o'rganish yoki yoshlarga o'rgatishni takomillashtirib borish talab qilinmoqda. Dunyo mamlakatlarida matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik va olingan bilimlarni mustaqil amalda qo'llay olish darajasini aniqlashda tadqiqotlar olib boruvchi PISA va TIMSS dasturi talablari ham aynan shunga asoslanadi. Yaqinda e'lon qilingan PISA-2022 xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha 81 mamlakatda o'tkazilgan sinovlar natijasiga ko'ra, yurtemiz o'quvchilari 364 ball to'plab, 72-o'rinni egalladi. Ya'ni, respublikamizdan qatnashgan o'quvchilar matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha eng quyi o'rinlardan birini band etdi. Bu esa ta'limda katta muammolarimiz borligini ko'rsatadi.

Demak, o'quvchilarni mustaqil ishlashga va raqamli texnologiyalarni maqsadli qo'llashga o'rgatish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar manbalaridan o'rinli foydalanishda yoshlar ongida ma'naviy imunitetni shakllantirish, raqamli axborotik bilan ishlashda bu juda muhim. Iqtidorli o'quvchilarning bilimlarni raqamli texnologiyalar vositasida mustaqil o'rganishi ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'qituvchilardan esa mustaqil ishlashga o'rgatish mexanizmlarini takomillashtirib borish talab etiladi. Albatta, o'quvchilar imkoniyatini hisobga olib, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan mustaqil



topshiriqlar ketma-ketligini aniqlash, darsda aniq masalani qo'yish kerak. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etish hozirgi zamon o'quvchisining imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin foydalanilayotgan onlayn yoki oflayn ma'lumotlarning imkon qadar aniq manzili o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi lozim. Aks holda katta ma'lumotlar makoniga tushgan o'quvchilar asosiy maqsaddan chalg'ib ketadi.

Ayniqsa, hozirgi davrda iqtidorli o'quvchilarning elektron yoki onlayn ma'lumotlarni o'rganishi va onlayn testlarni mustaqil yechishi yaxshi samara beradi. Chunki ta'lim muassasasida dars vaqtining chegaralanganligi o'quvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida mustaqil ishlashga o'rgatishni taqozo etadi. Odatda mustaqil olingan bilimlarni o'z vaqtida baholash o'quvchini yanada ko'proq ishlashga undaydi. Bu vaziyatda o'qituvchining tavsiyalarisiz o'zlashtirish biroq qiyin kechadi. Shu sababli iqtidorli o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati o'qituvchi vositasida yanada ortadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistonning yanada rivojlanishi, xalqimizga maqbul ish o'rinlarini yaratishda salohiyatli kadrlarga ehtiyojimiz bor. Bu faqat maktab va o'qituvchi tomonidan hal qilinadigan masala emas. Bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirishga e'tibor qaratish juda muhim. Hatto o'quvchining mustaqil ishlashi uchun ham ota-onaning qo'llab-quvvatlashi talab qilinadi. Yuksalish maktab va oila hamkorligisiz amalga oshmaydi.

Abror ERNAZAROV,
SamDU qoshidagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab direktori.

SARTAROSH

ham ilmi bo'lsin

Biz bugun ota-bobolarimiz bilan g'ururlanyapmiz, ammo ular izidan bormayapmiz, bilim olishga qiziqmayapmiz. Bir vaqtlar har bir qishloqda kutubxonalar bo'lsa, bugun tumanda bitta kutubxonaga topish amri-mahal. Kitob o'qishga, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqimiz shunchalik susayib ketdiki, hatto o'zini ziyoli hisoblaydigan ayrim kishilar bir oyda bitta kitob o'qimayapti.

Ba'zilar kitob o'qishga vaqti yo'qligini bahona qiladi. Aslida kitob o'qishga vaqt emas, ishtiyoq yo'q. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Muhammad Ali ismli bloger yaxshi tashabbusga qo'l urganining guvohi bo'ldim. U har kuni piyoda yurish, kitob o'qish, kun davomida hech kimni g'iybat yoki muhokama qilmaslik, telefondan kam foydalanish kabi shartlar bilan kundalik ishlarini rejalashtirib chiqibdi. Bu ishlarining vaqti belgilangan bo'lib, har kuni ko'paytirib borilarkan. Masalan, u bir kunda 50 sahifa kitob o'qisa, ertasi kuni 55 sahifa kitob o'qishi kerak. Piyoda yurish ham xuddi shunday. Yotishdan oldin kunlik rejasi haqida o'ziga hisobot beradi.

Bugun yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish uchun turli tanlovlar e'lon qilinayapti, g'oliblarga qimmatbaho sovg'alar berilyapti, ammo ularni kitob o'qishga qiziqtirish chorasi ko'rilmayapti. Muhammad Alining sog'lom hayot tarziga amal qilib, tuzib chiqqan kundalik rejasi meningcha ko'pchilikka dars bo'ldi.

Ijtimoiy tarmoqlarda mana shunday chorlovlarining paydo bo'layotgani yoshlarni bilim olishga qiziqtirishi, shubhasiz. Demak, yoshlarimiz orasida o'z ustida muntazam shug'ullanadiganlar, ilm olishning mohiyatini tushunganlar bor. Aslida yoshlarning kitob o'qimasligiga o'zimiz aybdormiz. Avvalo, kattalar uyida qo'lga kitob olmaydi.

Olimlar bola iqtidorli bo'lishi uchun ona homiladorlik paytida kitob o'qishi kerakligini aytmoqda. Bola tarbiyasi homiladan boshlanishi, ota-ona bunga tayyor bo'lishi, unga halol luqma yetirishi lozim. Afsuski, bugun yosh onalarning qo'lidan telefon tushmayotgani bois go'daklar ham telefon bersangiz, ovunadigan bo'lgan. Hatto jamoat transportlarida ham ona bolasi qo'lga telefon tutqazib, "endi jim bo'li", deyayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Shahrimizda kitob do'konlari barqaror bilan sanarli. Shunda ham kitob do'konlarida bor-yo'g'i ikki-uch nafar xaridorni uchratasiz. Oziq-ovqat do'konlarida esa odamlar kassa oldida navbat kutib turishadi. Kishilar ovqatlanish, qorinni to'ydirish kundalik ehtiyoj ekanini bilishadi-yu, kitob o'qish ruhiy oziq ekanini bilmaydi yoki uni hayotiy zarurat deb hisoblamaydi.

Yaqinda Angliyada istiqomat qiluvchi dugonam keldi. U gap orasida Angliyada kitob o'qish uchun hamma shart-sharoitlar borligini aytib qoldi. Masalan, choy ichishga kafega kirgan mijoz kun bo'yi kitob o'qib o'tirsa ham hech kim xalqaqit bermas ekan. Janubiy Koreyada ham istalgan yemakxonada kitob o'qib, dars tayyorlab o'tirsa bo'lishini eshitgandim. Demak, rivojlangan davlatlarda kitob o'qish kundalik ehtiyoj sifatida qabul qilinib, bunga yetarlicha shart-sharoit yaratilgan.



YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand tarixiy markazi 1123 gektar va uning muhofaza zonasi 1369 gektarni tashkil etadi. Xalqimizning madaniyati, qadimiy tarixi aks etgan, buyuk ajdodlarimizdan meros arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjo va obidalarining bugungi holati qanday?

Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Ziyodulla Nasimov ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida bu haqda batafsil ma'lumot berildi.
- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-ok-

ANIQLANGAN MADANIY MEROS KO'P

yo'qolib ketishi mumkinlari ham bor

tabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan viloyatda 1607 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatiga olingan, - deydi Z.Nasimov. - Ularning 973 tasi arxeologiya, 564 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari va 34 tasi diqqatga sazovor joylardir. Mavjud obyektlarning 1011 tasi respublika ahamiyatidagi, 596 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 221 tasi shaxsiy mulkdagi turarjoy binolari hisoblanadi. Madaniy meros obyektlarining 483 tasi, ya'ni 30 foizi Samarqand shahrida joylashgan. Madaniy merosni davlat tomonidan muhofaza qilish va davlat nazoratini o'rnatish maqsadida 735 ta obyektda muhofaza belgilari, 244 tasida yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi. Madaniy meros obyektlarining 1467 tasida davlat ka-

dastr hujjatlari shakllantirilib, ularga 845 nafar jamoatchi inspektor birkirildi. Moddiy-madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish, davlat reestri, elektron katalogi, pasporti va davlat kadastrini yuritish, ko'riqlanadigan tegralarni belgilash hamda sohada doimiy ravishda davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida joylarga chiqilib, o'rganishlar olib borildi.

Jumladan, Madaniy meros agentligiga taqdim etilgan 832 ta obyektlar qayta tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazildi va 818 ta obyektning pasporti shakllantirildi. Turizm obyekti sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan 107 ta moddiy-madaniy meros obyekti ro'yxatiga olindi. 130 ta yo'qolib ketish xavfi bo'lgan arxeologik madaniy meros obyektlarining ro'yxati shakllantirildi va 164 ta yangi arxeologik madaniy meros obyekti aniqlanib, ularni milliy



ro'yxatiga kiritish yuzasidan Madaniy meros agentligiga taqdim etildi. Shuningdek, 22 ta madaniy meros obyektlari restavratsiya qilish va ta'mirlash uchun 15 milliard 810 million so'm mablag' ajratilib, 9 ta obyektda restavratsiya va obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Matbuot anjunnida joriy yil oxirigacha viloyatdagi 1607 ta moddiy-madaniy meros obyektlarini qayta xatlovdan o'tkazish, 18 obyektda qurilish-ta'mirlash ishlarini yakunlash, sakizta tarixiy obyektni sayyohlar tashrifiga tayyorgarlik hamda 756 ta obyektda muhofaza belgilari o'rnatish rejalashtirilgani ma'lum qilindi.

F.RO'ZIBOYEV.

day zilzila Turkiyada sodir bo'lganida 50 ming odamning umriga zomin bo'lganini yozishmoqda. Yaponlar bunday taraqqiyotga faqat bilim bilan erishgani hech kimga sir emas. Bugun "kitob o'qish nima uchun kerak, bilim qorin to'ydiradimi", deyidiganlar mana shu haqiqatni tushunib yetishi lozim.

Sarlavhani "Sartarosh ham ilmi bo'lsin", deb bejiz tanlamadik. Bu bilan sartaroshni nopisand qilish emas, aksincha, o'z kasbining ustasi bo'lsin, degan ma'noda aytdik. Chunki quruvchi qurgan imorat sifatli bo'lsa, zilzila bo'lsa-da, bino qulamaydi. Bog'bon yetishtirgan mevalar "dori yemagan" bo'lsa, odamlarni kasal qilmaydi. Ichadigan suvimizdan tortib, nafas olayotgan havomizning tozaligiga erishish uchun har bir kasb egasidan ilm talab etiladi. Xalqimizda bir naql bor: "Bilim baxt keltirar". Baxtli bo'lishni istasangiz, bilim olishdan to'xtamang.

Xurshida ERNAZAROVA.

Muddatli harbiy xizmatchilar uchun test sinovlari boshlandi

Kecha viloyatimizda Respublika Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga harbiy tavsiyanoma berish bo'yicha test sinovlari boshlandi.

Test sinovlari tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda har bir harbiy qismning o'zida o'tkazilmoqda.

Muddatli harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan test savollarining umumiy soni 100 ta bo'lib, ularning 40 tasi - jangovar tayyorgarlik, 20 tasi - ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, 10 tasi - matematika, 10 tasi - fizika fan bo'yicha, 20 tasi mantiqiy test savollaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, tavsiyanomaga ega

bo'lgan fuqarolar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:
- Respublikaning oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra o'zlar to'plagan ballarining 50 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga;

- Respublikaning oliy ta'lim muassasalari (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) bakalavriyatga o'qishga kirish uchun qabul parametrlaridan tashqari ajratiladigan alohida qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etishga.

Test sinovlari viloyatimizda joriy yilning fevral oyi yakuniga qadar davom etadi.

Vohid SIRLIBOYEV,
Bilim va malakalarni baholash agentligi viloyat bo'limi boshlig'i.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 311 nusxada chop etildi. Buyurtma 38. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

